

YOSH AVLODNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

RUHIDA TARBIYALASH–XALQIMIZ TARBIYAVIY

AN'ANALARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI SIFATIDA

Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich

Toshkent davlat pedagogika universiteti Ma'nnaviyat asoslari
va huquq ta'limi kafedrasi dotsenti v.b. falsafa fanlari doktori (PhD)

E-mail: absattorov86@bk.ru tel +99899-447-00-66

Absattorova Madinabonu Rustamovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi
(ma'nnaviyat asoslari) mutaxassisligi 1-kurs magistranti tel +99893-527-88-22

Аннотация:

В данной статье традиции создаются в процессе исторического становления и развития нации и признаются бесценным духовным богатством, передающимся от предков к поколениям как священное наследие. Он основан на том, что священным долгом каждого поколения является сохранение и совершенствование обычаяев, ставших одним из главных символов нации. Выявлено, что использование национальных ценностей и традиций в воспитании совершенной личности является одной из актуальнейших задач, стоящих сегодня перед образовательным процессом.

Ключевые слова: Национальная ценность, традиция, зрелость молодежи, национальная духовность, юношеское творчество, самовоспитание, гуманизм, доброта, мужество, искренность.

Mamlakatimizda milliy qadriyatlarni tiklash bo'yicha jiddiy tadbirlarning amalga oshirilayotganligi ma'nnaviyatimizning tiklanishida juda muhim ahamiyat kasb etmoqda [1:488]. Milliy qadriyatlarni tiklanayotganligini bugungi kunda jahon tan olmoqda. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bahouddin Naqshband kabi ulug' siymolarga, Buxoro, Xiva shaharlari yubileylariga bag'ishlangan tadbirlar, simpoziumlarda dunyoning 50 dan ortiq davlatlaridan vakillarning qatnashganligi buning yorqin misolidir.

Ma'lumki, an'analar xalqning tarixiy shakllanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va ajdodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida o'tib kelayotgan





Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

bebaho ma'naviy boylik hisoblanadi. Millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish har bir avlodning muqaddas burchi bo'lib qolyapti.

An'analar barhayot bo'lishi uchun, eng avvalo, uni kelajagimiz bunyodkorlari yoshlar egallashi lozim. Ana'anaviy xalq bayramlarining tiklanishi o'zbek madaniyati tarixida muhim voqeа bo'lib qolmoqda. Chunki bayramlar hayotning eng yaxshi tomonlarini o'zida mujassamlashtirgan madaniyatning yirik va muhim shakli hisoblanadi. Shu yo'l bilan azaliy bayramlarning tiklanishi bilan xalq madaniyatining eng qimmatli tomonlarini jonlantirishga zamin yaratildi. Xalq an'analarining tiklanishi borasida so'z borganda, yoshlar kamolotida muhim o'rin tutadigan xalq o'yinlariga alohida to'xtalish lozim [2:499]. Ajdodlarimizning eng qadimiy an'anaviy, ko'pgina madaniyat shakllari raqs, teatr va sportga xos marosimlar shu o'yinlar zaminidan kelib chiqqan va tarixiy jarayonda avlod ajdodlarimizning sog'lomlashtiruvchi vositasi bo'lib kelgan.

Ravshanki, ko'ngilda vatanga muhabbat jo'sh urib turmasa, unga oshuftalik qalbni qaynatmasa, vujudingda Vatanga farzandlik burchi mas'ullik torlarini harakatga keltirmasa, harchand "Vatanim sajdaghohim, iqbol maskanim" [3:488] deyilgani bilan bizdagi mehr-u sadoqat qandaydir mavhumiylikka moyil hisga o'xshab qolaveradi. Bugungi kunda bizning qilayotgan barcha ishlarimiz yoshlarimizning baxtu-saodati ularning yorug' kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Odobli, bilimdon va aqlii, mehnatsevar, iymon-e'tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda milliy qadriyatlar va urf-odatlardan foydalanish bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayoni oldida turgan eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan ham mamlakatimizda yaratilgan bu betakror an'ana va marosimlar, milliy qadriyatlar va urf-odatlarni o'rganish hamma davrlarda ham olimlar oldiga bir qator muhim vazifalarni bajarish zaruratin qo'ygan. Bu borada J.Hasanboyev, M.Turopova, O.Hasanboyeva, A.Mavrunov, U.Qoraboyev va boshqalarning ilmiy ishlari va maqolalarini eslatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, xalq pedagogikasining ta'lim oluvchi shaxsiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish muammosini o'rganish bo'yicha M.Ochilov, A.K.Munavvarov, S.Axmedov, S.Ochilov, O.Musurmonova, M.Inomova, S.Nishonova va boshqalar tomonidan doktorlik ishlari bajarilganligini alohida qayd etish lozim.

Shu jaryonda har bir shaxsda milliy ma'naviyatni, milliy ong, milliy shuur, milliy tuyg'uni barkamollikka ko'tarish omillari faollik jarayoniga ko'chadi. Bu



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

ulug‘vor maqsadlarni amalga oshirish uchun jamiyatimiz o‘zining real imkoniyatlariga ega. Avvalo, ozod va mustaqil Vatanda xalqni farovonlikka yetaklovchi va ma’lum ma’noda munosib turmushni kafolatlovchi shart-sharoitlar yaratildi. Davlatimizda fidoyi, ishchan, tashkilotchilik salohiyati baland malakali kuchlar ulg‘aydi. Ular siyomosi, faoliyatida milliy ma’naviyatning barqaror mag‘zi, yaratuvchan kuchi mavjud. Milliy ma’naviyati barqaror shakllangan bunday kishilar o’z xalqi, millati, vatani manfaatini har qanday sharoitda himoya qiladi, o‘z faoliyatida xalqimizning milliy ma’naviyatini namoyish eta oladigan, millatning salohiyatini, Vatan qadri, sha’ni, shuhratini ellararo, davlatlararo ko‘rsata biladigan insonlardir. Yoshlarga milliy qadriyatlarni ta’limdan tashqari ishlar orqali singdirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarga e’tibor qaratilishi lozim: Birinchidan, yoshlarni erkin fikrlashga o‘rgatish, hayot mazmunini tushunib olishiga ko‘maklashish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishini, shakllantirish, o‘z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg‘otish; Ikkinchidan, talabalarni milliy, umuminsoniy qadriyatlarni, Vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, o‘stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarini shakllantirish; Uchinchidan, har bir o’smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatini turli sohalarda joriy qilish. Yoshlar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo’llab-quvvatlash uchun shartsharoit hozirlash;

To‘rtinchidan, insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga qarshi kurasha olish), muomala odobi kabi tarbiya vositalarini keng qo’llash;

Beshinchidan, yoshlarimizni erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatish. Ta’limdan tashqari tarbiyaviy ishlar talaba-yoshlarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo‘s sh vaqtlarida o‘quv-tarbiya jarayonini to’ldiradi. Bu jarayonlarni tashkil etish yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi[4:260].

Bugungi kun yoshlarining bir kunlik vaqt rejasidan o‘quv va darsdan (uyushmagan yoshlar uchun uy ishlaridan tashqari) tashqari vaqt sotsiologiyasini aniqlash va shu asosda ta’limdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Darsdan tashqari ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda: tanlovlardan, klublar, badiiy havaskorlik, uchrashuvlar, bahslar, sport



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

musobaqalari, davra suhbatlari, treninglar va boshqa tadbirlar, usullari: ishontirish, namuna ko'rsatish, o'rganish, mashq qildirish, rag'batlantirish, illatlarga salbiy munosabat bildirish, munozaralar, kuzatish, trening, jamoaviy ijodiy faoliyat, "mafkuraviy vaziyat", harakatli, taqlidli, rolli o'yinlar va boshqa shu turdag'i usullardan samarali foydalanish lozim.

O'zbek oilalaridagi kitobga muhabbat, kitobni asrab-avaylab saqlash va kitobxonlik xalqimiz ma'naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb etgan fazilatga aylangan. Chunki kishining o'zini-o'zi tarbiyalashida kitob ham bilim manbai, ham o'zingizni ko'rish, taqqoslash, taqlid qilish, munozara yuritish, bahslashishda ma'lum darajada ko'zgu vazifasini o'taydi. Kitobxonlik mushohada va mulohaza yuritish iqtidorini shakllantiradi, fikrni charxlaydi, teranlashtiradi. Ta'limdan tashqari ishlarda yoshlarni kitob mutola qilishga da'vat etish, ularning kitoblardan foydalanib o'z ustida ishlash imkoniyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy joylar, osori atiqalar, yodgorliklar, ziyoratgohlar bilan tanishib, ularni o'rganishga talaba-yoshlarni jalb etish zarur.

Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, muzeylar faoliyatini yanada takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Muzeylarga talaba-talabalarning tashrifini uysushtirib borish an'anaga aylanishi kerak. "Mening davlatim", "Mening xalqim", "Mening Vatanim", "Biz hech kimdan kam bo'lмаганмиз, кам бо'lmayмиз ham" va shu kabi turli ma'rifiy tadbirlar tashkil etib, ularda talabalarni va uyushmagan yoshlarni faol ishtirokini ta'minlash lozim [5].

Yoshlarning to'y-ma'rakalarda, ommaviy sayillar, bayramlarda ishtiroki asosida mahallada o'zini tutishni, kattaga hurmat, kichikka izzatni, yaxshi-yomon kunlarda yelkadoshlikni his qilishni o'rgatish orqali milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillaridan bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga munosabatni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim.

O'zbek xalqining hozirgi milliy ma'naviyati va qadriyatlari o'tmish milliy ma'naviyatining davomi bo'llib, ularga do'stlik, mehmondo'stlik, insonparvarlik, axloqiy poklik, saxiylik, xushmuomalalik, hayolilik, sizlab muomala qilish, ozodalik, xushchaqchaqlik, xushfe'lllik, mardlik, samimiylilik, lutfi karamlik, ro'zg'orparvarlik, ona yurt va xalqiga muhabbatlilik, insoflilik, diyonatlilik, rostgo'ylik, halollik, or-nomuslilik, to'g'rilik, sabrandishalik, vazminlik, hojatbarorlik, ota-onasi va kattalarni hurmat qilish, mehnatsevarlik, o'tmishga hurmat, insoflilik, iymonlilik, milliy g'urur, vatanparvarlik, millatparvarlik kabilar kiradi.



Bugungi kunda bularni yoshlar onggiga singdirish har bir ota-onan va tarbiyachi-murabbiylarning asosiy vazifalaridir.

Xalqimiz urf-odatlari, an'analarini va marosimlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Odamlarning bir-biriga mehr oqibati, oqilona munosabati, to'g'ri muloqoti, iltifoti, extiromi xalqimizning ichki go'zalligini, boy ma'naviy va ruhiy qiyofasini ifodalaydi [6:114]. Eng muhimi, xalqimizdagi mehr-muruvatlilik, saxiylik, mehmono'stlik, xushmuomalalik, mehr-oqibatlilik, andishalilik, samimiylilik, to'g'rilik, intizomlilik, mehnatsevarlik, o'zini tuta bilishlik, tejamkorlik, sabr qanoatilik kabi histuyg'ular va hislatlar bugungi kunda barkamol avlod tarbiyasida ibrat-namuna vazifasini bajaradi.

REFERENCES

1. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rinni o'lgan. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rinni o'lgan. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
3. Sh.M.Mirziyoyev, Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016 yil 1 noyabrdan 24 noyabrga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so'zlagan nutqlari o'rinni o'lgan. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
4. Aliqulov X. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida. - Andijon. 2003. 260 b.
5. Umurzoqov O.P. Umuminsoniy qadriyatlar: milliy an'ana va urf-odatlar takomillashmoqda. G'G' O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1992 №2.



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

- 
6. A.Allayarov, G'.Amanov. Yoshlar tarbiyasida innovatsion yondashuv (ilmiy ommabop nashr). Guliston 2020. - 114 bet.
 7. Sanakulov, A., Rakhmonov, D., & Nazarova, N. (2020). Social Service Technologies and Mechanisms of its Implementations. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(3), 14192-14198.
 8. Амонов, Б., Алимова, Ш., & Санакулов, А. (2018). Процесс глобализации и модернизации в Республике Узбекистан. Theoretical & Applied Science, (5), 431-435.
 9. Касимова, З. С., & Санакулов, А. Н. (2019). ВЫСОКАЯ ДУХОВНОСТЬ-КАК ФАКТОР ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ. European Journal of Humanities and Social Sciences, (1), 168-172.
 10. Sanakulov, A. N. (2019). MAINTENANCE OF THE WORLD OUTLOOK SECURITY IN THE INFORMATION SOCIETY. Социосфера, (4), 54-57.
 11. Санакулов, А. Н. (2022, January). ВЫРАБОТКА ИНФОРМАЦИОННОГО ИММУНИТЕТА-КАК ЗАЛОГ ПОВЫШЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ КУЛЬТУРЫ ЛЮДЕЙ. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 2, No. 1).
 12. Sanaqulov, A. N. Prospective Directions of Effective Use of Virtual Technologies in Increasing the Power of Youth. JournalNX, 897-903.
 13. Tulenova, G., & Sanaqulov, A. (2022). MODERN VIRTUAL TECHNOLOGY AND ITS OPPORTUNITIES. Academic research in educational sciences, 3(9), 100-105.
 14. Омонов, Б., & Санакулов, А. (2018). ДАВЛАТ АРБОБИ ВА СИЁСИЙ ЕТАКЧИ. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 38(1), 82-84.
 15. Санакулов, А. (2017). Духовность-основа информационной безопасности. Молодой ученый, (19), 231-234.10.
 16. Bakiyevna, V. Z., Khamidovna, S. A., Nazarovich, A. S., & Abdulkarimovna, G. K. (2021). The Role of the Spiritual Heritage of Mahmudhodja Behbudi in the Education of the Heirs of the Third Renaissance. Design Engineering, 14650-14671.
 17. Khakimov, A. (2021). THE ROLE OF POLITICAL AND LEGAL CULTURE IN ENSURING CIVIC RESPONSIBILITY IN SOCIETY. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.2 Historical sciences).



- 
18. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
 19. Ҳакимов, А. О. (2017). ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛАРНИНГ ҚОНУН БИЛАН ҲИМОЯЛАНИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ. Научная дискуссия: вопросы юриспруденции, (5), 164-167.
 20. Qaxxorova, M. (2022). БИОЭТИКА ИНСОН ҲАЁТИЙ ФАОЛИЯТИНИНГ АМАЛИЙ ФАЛСАФАСИ СИФАТИДА. NamDU.
 21. Qaxxorova, M. (2022). ЖАДИДЧИЛИК ТАЪЛИМОТИДА ЖАМИЯТ МУХИТИНИ АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАШТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Теория и практика современной науки.
 22. Qaxxorova, M. (2022). Ma'naviy tarbiya strategiyasi. Ўзбекистон халқаро ислом академияси нашриёт-матбаа.
 23. Nazarovich, S. A., & Olimjanovich, X. A. (2022). FEATURES OF PREVENTING METAMORPHOSIS OF SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE VIRTUALIZATION OF PUBLIC LIFE. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
 24. Абсатторов, Б. (2019). ШАХС МАҶНАВИЙ-АХЛОҚИЙ БАРКАМОЛЛИГИ МЕЗОНЛАРИНИНГ ФАЛСАФАЙ ТАЛҚИНЛАРИ. Scienceweb academic papers collection.
 25. MAMARASULOVICH, A. B. (2020). ИНСОН ФАОЛИЯТИДА АХЛОҚИЙ МЕЪЁРЛАРНИ ШАКЛАНТИРИШ МЕЗОНЛАРИ. Вестник Каракалпакского государственного университета им. Бердаха.
 26. MAMARASULOVICH, A. B. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. Scienceweb academic papers collection.
 27. MAMARASULOVICH, A. B. (2019). Общность общечеловеческих и национальных ценностей в нравственном развитии. ILM SARCHASHMALARI.
 28. MAMARASULOVICH, A. B. (2018). INNOVATORY METHODS OF WORKING WITH UNORGANIZED YOUTH. European Science Review.
 29. MAMARASULOVICH, A. B. (2018). Zamonaviy sivilizatsiya rivoji va uning axloqiy mezonlari. TDPU ILMIY AXBOROTLARI.
 30. Абсатторов, Б. М. (2022). ТАСАВВУФ-ЎЗ-ЎЗИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ВА ҲАҚИҚАТНИ БИЛИШ ЙУЛИ СИФАТИДА. Gospodarka i Innowacje., 30, 167-173.



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

31. Nizomi, A. B. M., & Al-Khorazmi, K. A. O. (2022). Sufism as a way of self-implementation and knowledge of the truth. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(11), 199-204.
32. Mukhammadievich, K. J., & Mamarasulovich, A. B. (2022). POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONFLICT OF PHILOSOPHY AND SUFISM. *Conferencea*, 46-56.
33. Mukhammadievich, K. J., Mamarasulovich, A. B., & Olimjanovich, X. A. (2022, December). THE POSITION OF AL-FARABI AND IBN SINA IN THE CONTROVERSY OF THE HISTORY OF PHILOSOPHY AND SUFISM. In *E Conference Zone* (pp. 17-25).
34. Qaxxarova, M., & Absattarov, B. M. (2020). Evolution of views on ethics, ethical criteria and ethical standards. *The Light of Islam*, 2020(1), 110-115.
35. Абсаттаров, Б. М., & Юсупова, Н. А. (2020). Эволюция взглядов об этике, этических критериях и этических нормах. *Учёный XXI века*, (12-1 (71)), 75-81.
36. Absattarov, B. M. (2019). EVOLUTION OF VIEWS ON ETHICS, ETHICAL CRITERIA AND ETHICAL STANDARDS. In *НОВАЯ НАУКА: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ* (pp. 135-141).
37. Absattarov, B. M. (2019). SPIRITUAL AND MORAL DEVELOPMENT OF THE PERSON IN MODERN WORLD. *Central Asian Problems of Modern Science and Education*, 4(2), 167-173.
38. Mamarasulovich, A. B. (2021). IMPROVEMENT AND DEVELOPMENT OF ETHICAL CRITERIA AND NORMS.
39. МАМАРАСУЛОВИЧ, А. Б. (2021). Баркамол ёшларни тарбиялашда маънавий-ахлоқий мезон ва меъёрларнинг ўрни. *АНДИЖОН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ХАБАРНОМА*.
40. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL FOUNDATIONS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 11, 154-163.
41. Mamarasulovich, A. B. (2022). RELIGIOUS AND PHILOSOPHICAL ASPECTS OF HUMAN MORAL DEVELOPMENT. *Conferencea*, 197-201.
42. Mamarasulovich, A. B. (2021). IMPROVEMENT AND DEVELOPMENT OF ETHICAL CRITERIA AND NORMS.



**Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies
Hosted online from Moscow, Russia**

Date: 11th January, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

43. Kholmuminov, J. M. (2022). THE POSITION OF TASAVVUF AND IRFAN IN MAVERUNNAHR AND KHORASAN: IBN AL-ARABI AND ABDURAHMAN JAMI (A COMPARATIVE ANALYSIS). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(9), 76-92.
44. Холмұмұнов, Ҙ. (2021). ХУДО ВА ҲАСТӢ АЗ ДИДГОХХОИ АРАСТУ, ФОРОБӢ ВА СИНО. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 1115-1123.
45. Холмұмұнов, Ҕ. М. (2021). ТАСАВВУФНИ ШАКЛАНТИРГАН МАНБАЛАР МУАММОСИ ҚИЁСИЙ ТАСАВВУФШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИДА. *Исследование Ренессанса Центральной Азии*, 2(2).
46. Холмұмұнов, Ж. М. (2021). МОВАРОУННАҲР ФАЛСАФИЙ-ИРФОНИЙ МАКТАБЛАРИ ВА ИБН АЛ-АРАБИЙ ТАЪЛИМОТИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(10), 803-811.
47. Холмұмұнов, Ҕ. (2021). ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ СУФИЗМА–ОДНА ИЗ ОСНОВ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 1145-1150.
48. Холмұмұнов, Ж. (2021). СОХИБҚИРОН АМИР ТЕМУР ФАТҲЛАРИДА ҲАРБИЙ ТАКТИКА ВА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАР МУТАНОСИБЛИГИ. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 538-553.
49. Kholmuminov, J., & Narzulla, J. (2020). INFLUENCE OF VAHDAT UL-WOOJUDE PHILOSOPHY (UNITY OF BEING) ON NAKSHBANDIYA DOCTRINES Transformation processes and special features. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 297-307.
50. Kholmuminov, J., & Narzulla, J. (2020). INFLUENCE OF VAHDAT UL-WOOJUDE PHILOSOPHY (UNITY OF BEING) ON NAKSHBANDIYA DOCTRINES. *Solid State Technology*, 63(6), 26-34.
51. Холмұмұнов, Ҕ. М. (2020). ВАҲДАТ УЛ-ВУЖУД ТЕОЛОГИК ТАЪЛИМОТИ ВА НАҚШБАНДИЯ ТАРИҚАТИ. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ КОНСЕНСУС*, 1(1).
52. Тўева, М. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲУҚУҚЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(1), 395-399.